

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

“KITOBI DADAM QO‘RQUT”DAGI SARXUSHLIK VA TUSH MOTIVI

Venera Radjapovna ATAXANOVA,

f.f.f.d. (PhD), dotsent

UrDU o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290746>

Annotatsiya. Maqolada “Kitobi dadam Qo‘rqut”dagi inson hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlar haqida so‘z boradi. Shu bilan birga dostonda sarxushlik – mastlik holatlari alplarga xos ruhiy ustuvorlik balki ramziy ma‘no kasb etuvchi lavhalar, tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: “Kitobi dadam Qo‘rqut”, “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish” doston, sarxushlik, ramz, motiv, epos.

Аннотация. В статье рассматриваются ритуалы, связанные с жизнью человека, описанные в “Книге моего деда Коркута”. В частности, анализируются эпизоды, связанные с нетрезвостью и его символическим значением, обращается внимание на духовное преимущество богатырей.

Ключевые слова: “Книга моего деда Коркута”, “Гороглы”, эпос “Алпомии”, опьянение, символ, мотив, эпос.

Annotation. The article talks about rituals associated with human life in “The Book of My Grandfather Korkut”. At the same time, scenes of drunkenness in the epic are analyzed, which acquire spiritual priority and symbolic meaning typical of the Alps.

Key words: “The Book of My Grandfather Korkut”, “Gorogly”, the epic “Alpomish”, drunkenness, symbol, motive, epic.

“Kitobi dadam Qo‘rqut” yodgorligining turli shoxobchalarida inson hayoti, urf-odati bilan aloqador ziyofat, to‘y va boshqa marosimlar haqida so‘z boradi. “Bomsil Bayrak” shoxobchasida Bomsil Bayrak Bonu chechak bilan uchrashib, to‘y taraddudi boshlangan ayyomda o‘z do‘stlari bilan birgalikda keng yaylovga chodir tikadi. Chunki o‘sha davrdagi o‘g‘uzlar udumiga muvofiq uylanadigan yigit to‘y taraddudiga kirishilgandan keyin tashqariga chiqib yoydan o‘q otar ekan. O‘q qayerga borib tushsa, o‘sha yerda chodir tikib, do‘stlari bilan ko‘ngilxushlik qilar ekan. Bayrak ham o‘sha udumni bajarar ekan, yeb-ichib sarxush bo‘lgan paytida g‘anim josuslariuning ahvolidan xabar topib, hujum uyushtiradilar va uni asir olishadi. [Kniga moego deda Korkuta 2:39]

Ushbu holatning ayrim ko‘rinishlari “Go‘ro‘g‘li” eposining “Arab tang‘an” bo‘limida ko‘zga tashlanadi. Go‘ro‘g‘li bir kuni 40 yigiti bilan ovga chiqib, sahroda ov-ovlab, bazmni boshlab yuborishadi. Go‘ro‘g‘li chodirda qolib, yigitlarni yana ovga yuboradi. Yonida bitta Avazxon qoladi. Go‘ro‘g‘li ketma-ket sharob ichib sarxush bo‘ladi. Shu orada Avazxon yigitlar izidan G‘irotni minib, jo‘nab ketadi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Go‘ro‘g‘lining bu ishlarini Xunxor shoh tomonidan yuborilgan josus kuzatib, tog‘ning kovagida payt poylab o‘tirgan edi. U o‘sha paytda birdan kelib, sarxush yotgan Go‘ro‘g‘lini tappa bosib, qo‘l – oyog‘ini tang‘ib, tuyaga yuklab, olib ketadi. Yigitlar kelguncha, ular ancha masofani bosishadi. Oxir-oqibatda otasini Avazxon qutqaradi. [Go‘ro‘g‘li 1:161]

Odatda eposda epik qahramonning o‘zi darajasida, ba‘zan o‘zidan ham ustun raqibi bo‘ladi. Bu raqib hamisha ayg‘oqchilik, josuslik orqali epik qahramonni ta‘qib qilib yuradi. “Kitobi dadam Qo‘rqut”da ushbu raqiblar g‘ayurlar deb beriladi. Aslida eposda asosan g‘ayridinlar bilan, mahzablararo kurash davom etadi. Mumtoz o‘g‘uz eposida ko‘pgina joylarda “Lotmanotini yo‘qotib, o‘rniga masjid, madrasa qurdirdi” degan iboralar uchraydi. “Lotmanot” deganda arablarning islomgacha bo‘lgan butparastlik dini tushuniladi.

“Go‘ro‘g‘li”, “Yusuf va Ahmad” dostonlarida esa “qizilboshlar”ga qarshi mazhablararo ziddiyat asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu mafkuraviy kurashlar eposda, albatta, o‘z ifodasini topadi.

“Kitobi dadam Qo‘rqut” asarida bunday shiddatli qarama-qarshilik har bir shoxobchada ko‘zga tashlanadi. Shoxobchalarda raqib sifatida namoyon bo‘ladigan shaxslar yonma–yon yashaydigan g‘ayridin qabilalar sifatida tilga olinadi. “Go‘ro‘g‘li”da esa asosan davlatlararo qarama-qarshilik namoyon bo‘ladi. Albatta sarxush bo‘lib asir tushish motivi umumiy bo‘lsa-da, har bir eposda uning berilishi turlicha holatda bayon etiladi. “Kitobi dadam Qo‘rqut”da Bayrak asir tushgandan keyin 16 yil tutqunlikda hayot kechiradi. Oxir-oqibat uni dushman amaldorlaridan bittasining qizi asirlikdan qutilishiga yordam beradi.

“Go‘ro‘g‘li” eposida esa Go‘ro‘g‘lining tutqunligi unchalik cho‘zilmaydi. Rayhon Arabning qo‘lidan uni Avazxon qutqarishga urinadi, lekin yoshlik, tajribasizlik qiladi. Keyin 40 yigit bilan hamkorlikda Go‘ro‘g‘lini ozod qilishadi.

Avazxonning Go‘ro‘g‘lini qutqarishdagi jasorati “Dersaxon o‘g‘li Buqachxon” rivoyatidagi voqealarga ham o‘xshab ketadi. Bu shoxobchada Dersaxonni o‘g‘li Buqachxon 40 yigit hamrohligida tutqunlikdan qutqaradi. Binobarin, tutqunlikka tushish, ota bolani, bola otani qutqarishi motivlari har ikkala eposda tez-tez uchrab turadi.

Sarxushlik, mastlik ushbu asarlar yaratilib, ijro qilinib yurgan paytlarda Islom dini qonuniyatlariga ko‘ra ta‘qiqlangan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, bunday lavhalar ko‘pgina dostonlar mazmunidan joy egallagan. Tadqiqotlarga ko‘ra mastlik, sarxushlik bilan aloqador motivlar juda qadimiy tarixga ega bo‘lib, uning

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ko‘rinishlari “Avesto”da ham bor. Folklorshunos J.Eshonqulning ta’kidlashicha, bu holat “Alpomish” va “Dada Qo‘rqut” eposidagi mifologik qatlam ildizlariningqadimga borib taqalishini ko‘rsatadi. Zero, qadimda shomonlik marosimiga muvofiq behushlik maqomidan o‘tgan shomon yovuz ruhlarni, yovuz kuchlarni eng olish qudratiga ega bo‘lgan. [Eshonqul J.6:3]

Biz tahlil qilayotgan asarlardagi sarxushlik – mastlik holatlari ham alplarga xos ruhiy ustivorlik ko‘rinishlari bo‘lib, dostonlarda jismoniy mastlik emas, balki ramziy ma’no kasb etuvchi lavhalardir.

Eposga xos asosiy xususiyatlardan biri shuki, uning tarkibida eng qadimiy mifologik motivlardan tortib, doston kuylanayotgan ijtimoiy tuzumga xos yangi voqelargacha o‘z ifodasini topadi. Arxaik motivlar asosan barqaror saqlanib, epik obrazlar taraqqiyoti bilan birgalikda muayyan o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Eposdagi “ibtidoiy urf-odatlar va huquqiy normalar haqidagi xotiralar epik idealning substrat qismini tashkil etadi”. [Meletinskiy E.M. 3:63]

“Kitobi dadam Qo‘rqut” yodgorligida bunday substrat udumlar ko‘plab topiladi.

O‘g‘uz eposining o‘n birinchi shoxobchasida “Salor Qozonning asir tushishio‘g‘li o‘rozbekning uni qutqarishi” voqealari bayon etiladi. o‘sha joyda o‘g‘uz beklariga xos bitta odat tasviri berilgan bo‘lib, bularga xos uxlash voqeasi so‘z etiladi. Yodgorlikda ta’kidlanishicha, o‘g‘uz beklari bir uxlasa, etti kun uxlar edi. Shu sababli bu uyquni kichik o‘lim deb ataganlar.

Salor Qozon bir kuni ovga chiqib, bir to‘da g‘ozga ko‘zi tushadi va ovchi lochinini qo‘yib yuboradi. Lochin esa boshqa tomonga qarab uchib, Tumanan (Bartoldning izohiga qaraganda, Armanistonning Tumanyan qal’asi) qal’asiga borib qo‘nadi. Bu joy g‘ayridinlar eli bo‘lib, o‘sha erda Salor Qozonni uyqu bosadi. Dushman josuslari buni bilib, uni asirga olishadi. [Kniga moego deda Korkuta 2:96]

“Yusuf va Ahmad” dostonida mazkur motiv ba’zi o‘zgarishlar bilan takrorlanadi. Dostonda tasvirlanishicha, Yusufbek bir uxlasa, uch kun uxlar edi. Agar uxlamasa, uch kecha – kunduz uxlamasa edi. Mirzo Mamad vaqtni g‘animat bilib, Yusufbekning chodiriga kirib, uni uyg‘otadi. [Go‘ro‘g‘li 1:86] Ushbu epizoddan keyin qizilboshlar josusi Mirzo Mamad uni chala uyquda ekanligidan foydalanib, hiyla bilan Ahmadbek bilan birgalikda asir qilib Eronga olib borib, Go‘zalshohga topshiradi.

Ikkala asarda ham uyqu, josuslik, asir tushish kabi hodisalar o‘zaro bir-biri bilan aloqaga kirishadi. Epik qahramonning uch kun, yetti kun uxlashi mifologik tasavvurlar bilan bog‘lanadi. Negaki xalq orasida “Dev uyqusiga ketdi” degan ibora

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

borki, qattiq uxlagan kishilarga nisbatan ushbu ibora ko‘p ishlatiladi.

“Go‘ro‘g‘li” eposidagi Arab Rayhonning uyquasi tasviri bu fikrimizni isbotlay oladi. Go‘ro‘g‘li Arab Rayhonning qizini olib qochgandan keyin uni uyg‘otmoqchi bo‘lishadi. Avvalo, uni taklif qilib uyqudan turg‘izmoqchi bo‘lishadi. Foydasi bo‘lmaydi. “So‘ng qulog‘iga zang urdilar bo‘lmadi. Og‘ziga taka (yosti)q bosib ko‘rdilar, bo‘lmadi. Kabobning sixini cho‘g‘ etib o‘kchasiga, kapgirnini cho‘g‘ etib oyog‘iga bosdilar”. [Go‘ro‘g‘li 1:86]

Arab Rayhonning ushbu uyqu tasviri mifologik jonzotlarga xos xususiyatning bir ko‘rinishidir. Uyqu motivi dostonlarga ertaklar orqali o‘tgan bo‘lib, epik qahramon shaxsidagi mo‘jizaviylikni bo‘rttirib ko‘rsatish vositasidir. Shunisi ham borki, epik qahramonlar hamisha uyqu natijasida tutqunlikka tushadilar. Uyqu bilan bog‘liq yana bir motiv tushga aloqadordir. B.N.Putilov tush ko‘rishni epik qahramonning xavf-u xatardan ogoh etilishi, deb belgilaydi. [Putilov B.N. 5:106] J.Eshonqul esa tushni tekshirish va uning ta‘bir, ramz kalitini topish qahramon ruhiy holati haqida yaqqolroq tasavvur beradi, deya ta‘kidlaydi. [Eshonqul J. 6:103]

“Kitobi dadam Qo‘rqut” yodgorligining “Salor Qozon uyining talanishi” deb nomlangan ikkinchi shoxobchasida tush haqida so‘z boradi. Salor Qozon uxlab, yomon tush ko‘radi va qo‘rqib o‘rnidan turadi. “Bilasanmi, inim, Qora Ko‘na, men tushimda neni ko‘rdim. Qo‘limdagi talpinib turgan lochinimni ushladilar. Osmonda chaqnagan oq yildirim mening uyimga tushdi. Qora bulut uyim ustiga kelib, yomg‘ir yog‘di, quturgan bo‘rilar uyimni taladi. Qora nar bug‘ro buqamni to‘xtatdi. Mening qora qarg‘aday sochim ko‘zimni qopladi. Barmog‘imning o‘ntasi ham qonga botdi. Shunda Qora Ko‘na aytdi: qora bulut davlating; qor – yomg‘ir – lashkaring; soch – qayg‘u; qon – baxtsizlik, boshqasini bilmayman. [Kniga moego deda Korkuta 2:24] Shundan keyin Salor Qozon eliga qarab ot suradi. Kelib noxush manzarani kuzatadi: uyi talangan, barcha asir olingan. Tush manzarasidan ko‘rinadiki, Salor Qozon hayotda bo‘lajak ko‘ngilsizlikdan ogohlantirilgan. Tushdagi ramzlarning barchasi o‘ngida haqiqat bo‘lib gavdalanadi.

Xorazm dostonlarida tush bilan bog‘liq epizodlar nihoyatda ko‘p. Tushning yorqin namunalari “Go‘ro‘g‘li” eposida beriladi. “Go‘ro‘g‘lining do‘rayishi” shoxobchasida Jig‘olibekning tushida uning qo‘liga oshiq berishadi. Sal o‘tmay go‘rda tug‘ilgan farzand haqida xabar keladi. Borib Go‘ro‘g‘lini mozordan olib qaytishadi. [Go‘ro‘g‘li 1:19] “Avazning Vayongonga ketishi” shoxobchasida Go‘ro‘g‘lining tushiga Avaz kiradi. Avaz lak – lak askarga bosh bo‘lib, tug‘ ko‘tarib, dovul qoqtirib Chamlibelga kelayotir emish. [Go‘ro‘g‘li 1:19] Go‘ro‘g‘lining ko‘ngli

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

g‘ash tortadi, bir narsani sezganday bo‘ladi. Sal o‘tmay Avazning rostdan ham Chamlibelga qo‘shin tortib kelgani ma‘lum bo‘ladi.

“Go‘ro‘g‘li” eposining “Bozirgon” shoxobchasida Bozirgonning singlisi Oysulton akasining shahid bo‘lishini tushi orqali bashorat qiladi. [Go‘ro‘g‘li 1:19]

“Yusuf va Ahmad” dostonida esa tush epizodi asarning butun syujetini qamrab oladi. Barcha voqealar Go‘zalshohning tushidagi tafsilotlar doirasida harakatga kiradi. Dostonda berilishicha, “Bir kechasi Go‘zalshoh tush ko‘rdi. Tushida ul xazinasiga kirib bir lagan tilloni boshig‘a ko‘tarib chiqib borur erdi. Birdan ko‘chaning ikki tarafidin ikki yo‘lbars paydo bo‘ldi. Alar podshohga tashlandilar. Podshohning qo‘lidin lagan erga tushib tillolar sochilib ketdi. Boshi aylanib, og‘zi ochilib, og‘zidin bir qora qush uchib chiqib ketdi. Shunda podshoh bir oh tortdi, o‘z ohiga o‘zi uyg‘ondi. Andin so‘ng o‘z elining yoshi ulug‘larini, amaldorlarini yig‘ib tushini bayon etdi. Ammo hech kim aning tushini ta‘birqila bilmadi. Shu paytda bir saroybon turib podshohga arz etdi:

-Ey sultonim, Chinmochin shahridin bir kishi elimizga kelib tushdi. Uch tuya kitobi bor turur. Ilmi hikmatdin xabardor erur. Otiga Bobo Qambar derlar, sizning tushingizni shul kishi ta‘bir qilur. Go‘zalshoh mulozimlarga Bobo Qambarni keltirishni buyurdi, darhol ani keltirdilar. Shunda Bobo Qambar podshohga shunday javob beradi:

Ikki yo‘lbars-Yusuf-Ahmad bolamdur,
Shoh yazid, eshiting ushbu kalomdur,

Boshingdin qo‘zg‘algan ruhijoningdur,
Yusuf turur tushda ko‘rgan ahvoling.

[Oshiqnoma. III kitob. 4:28]

Doston voqealari ushbu epizoddan keyin shiddatli rivojlanish bosqichiga kiradi. Doston nihoyasida tush ta‘birining barcha ko‘rinishlari hayotda o‘z isbotini topadi. Dostonda tush bilan aloqador bunday lavhalar anchani tashkil etadi.

Yusufbekning yori Gulasal oyim kuyovi kelavermagach, kuta-kuta uxlab qoladi va tush ko‘radi. Tushida oqo‘tovdan yiqilib ketib, oh, deb o‘zining ovozigacha uyg‘onadi. Tez o‘tmay Yusufbek bilan Ahmadbekning asir tushganligi haqida mudhish xabar keladi. Yusufbek zindonda yotganida tush ko‘radi. Tushida bir zoti sharaf choh ichiga kirib, unga uch gul taqdim etadi. Bu tushni Bobo Qambar ta‘bir qilib, uch kun ichida ozodlikka chiqarsan, deydi. Uch kundan so‘ng ikki yigit asirlikdan qutulishadi. Dostonning yana bir joyida Yusufbekning onasi La‘lixon

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

oyimning tushida boshi ustiga bir qarchig‘ay qush kelib soya solib turadi.

Shu orada o‘g‘li – soyaboni uyga kirib keladi.

Doston voqealari asirga tushish, ayriliq, ig‘vo, ikki yuzlamachilik kabi turli-tuman noxush lavhalardan tashkil topib, obrazlar chuqur iztirob og‘ushida faoliyat ko‘rsatishadi. Ushbu holat ulardagi ruhiy beqarorlikni, tashvishni kuchaytiradi. Bu esa halovatsiz uyqu va tush bilan bog‘lanib ketadi.

Shu narsa xarakterliki, har bir ko‘rilgan tushda ramziy holatlar mavjud. Salor Qozonning tushida ko‘rgani – bo‘rilarning uyini talashlari, barmoqning qonga botishi kabilar baxtsizlik ramzi sifatida keltiriladi. Go‘ro‘g‘li tug‘ilganda bobosiningqo‘liga oshiq berilishi – farzand ramzidir. Go‘zalshohga ikki yo‘lbarsning tashlanishi Yusuf va Ahmadlarning ramzi bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu ramzlarning barchasi urf-odatlar bilan uzviy bog‘langan. Bu holat tushdagi ramziy ifodalarning barqaror yashab kelishiga olib kelgan. Umuman olganda, tush bilan bog‘liq qarashlar juda qadimga borib taqaladi. “Ibtidoiy insonlar tushga katta e‘tibor berganlar. Ertanggi kunini, kelajagini tushsiz tasavvur etolmaganlar”. [Eshonqulov J. 7:55] Shu sababli turkiy xalqlar eposida bu masalaga katta e‘tibor qaratilgan. Har bir insonning ruhiy holati asosida kelib chiqqan tush va undagi ramzlar maxsus tush ta‘birchilari tomonidan ijobiy yoki salbiy baholangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Go‘ro‘g‘li”. – B.123-356.
2. Книга моего деда Коркута. – B.38-96.
3. Мелитенский Е.М. Введения в историческую поэтику эпоса и романа романа. – М.: Наука, 1986. – С.63.
4. Oshiqnoma. III kitob.–Urganch: “Xorazm”, 2008. – B.27-28.
5. Путилов Б.Н. Героический эпос и действительность. – С.106.
6. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1997. – B.123.
7. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006.– B.55.